

O`RTA OSIYOLIK ALLOMALARNING IJODIDA GEOGRAFIK TAFAKKURNING RIVOJLANTIRILISHI

Eshboyev B.T – Qarshi davlat universiteti dotsenti

Eshdavlatov A.S – Qarshi davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada geografik bilim va tafakkurning rivojlanishida o`zining ilmiy ishlari asosida ulkan hissa qo`shgan o`ndan ortiq o`rta asr olimlarning ilmiy ijodi va ilmiy qarashlari bayon etilgan.

Kalit so`zlar: Muxammad Muso Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Abdulloh Muhammad Jayxoni, Zahiriddin Muhammad Bobur.

РАЗВИТИЕ ГЕОГРАФИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ТРУДАХ СРЕДНЕАЗИАТСКИХ УЧЁНЫХ

Эшбоев Б.Т. – доцент Каршинского государственного университета

Эшдавлатов А.С. – Студент Каршинского государственного университета

Аннотация: В статье описывается научное творчество и научные взгляды более десяти средневековых ученых, внесших значительный вклад в развитие географических знаний и мысли посредством своих научных трудов.

Ключевые слова: Мухаммад Муса Аль-Хорезми, Абу Райхан Аль-Бируни, Абу Абдулла Мухаммад Джайхани, Захириддин Мухаммад Бабура.

THE DEVELOPMENT OF GEOGRAPHICAL THINKING IN THE WORKS OF CENTRAL ASIAN SCIENTISTS

Eshboyev B.T. – Associate Professor, Karshi State University

Eshdavlatov A.S. – Student, Karshi State University

Abstract: The article describes the scientific work and scientific views of more than ten medieval scholars who made a significant contribution to the development of geographical knowledge and thought through their scientific work.

Keywords: Muhammad Musa Al-Khorezmi, Abu Rayhan Al-Beruniy, Abu Abdullah Muhammad Jahaniy, Zahiriddin Muhammad Babur.

Kirish. Hozirgi zamon o`zbek milliy geografiyasi Yer sayyorasini bir butun yaxlit idrok etadigan umuminsoniy, umummilliy geografiyaning bir qismidir. Bashariyat ilm-fani va madaniyatining tamal toshini qo`ygan siymolar boshqa ilm sohalari qatorida, umuminsoniy tafakkurning bir bo`lagi - geografiya fanining ham yetakchi qoida, qonuniyat va tushunchalarini yaratib, izohlab berganlar. Hozirgi zamon geografiyasining qonuniyat, tushuncha, qoidalarining mohiyatini izoxlab beruvchi terminlar o`zbek tilining qonun-qoidalari, xalqning turmush tarzi, fe`l-atvoriga bog`liq ravishda talqin etilib, og`zaki talaffuz va yozma matnda ifodalab berilayotgani uchun ham geografiya fanining milliylik jixati xususida so`z yuritish mumkin. Milliy geografiyamiz shakllanishi jahon ilmu fani taraqqiyoti tarixida munosib o`ringa ega bo`lgan, Sharq va arab ilmiy tafakkurining darg`alari deb e`tirof etilgan Muxammad Muso Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu

Abdulloh Muhammad Jayxoni, Zahiriddin Muhammad Bobur nomlari bilan chambarchas bog'langan.

Tahlil va natijalar: Haqqoniy ravishda sharq va arab geografiya fanining asoschisi sifatida tan olingan Al-Xorazmiyning taxminan 840 - yilda yozib tugatilgan "Kitobu surat al-Arz" asarining nomi "Yer yuzi sur'ati", ya'ni ma'nosi arabchadan o'zbekchaga o'girilib tahlil qilinsa, yunon tilidagi geografiya so'zining xuddi o'zginasi ekanligi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Xorazmiy asarining ikkinchi nomi "Kitobu rayam ar-rub al-ma'mur", ya'ni «Yer obod choragining rasmi» bo'lganligidan - «Yerning aholi yashaydigan bo'lagi geografiyasi», degan mazmunga mos keladi. Aytish mumkinki, Xorazmiy qadimgi yunon, fors, xorazm, hind va boshqa madaniy xalqlarning Yer ilmi haqidagi g'oyalarini umumlashtirib, islom dunyosida geografiya fanining yangicha talqindagi variantini yaratdi. Xalifalikning poytaxti Bag'dodda xalifa Ma'mun tomonidan tashkil etilgan "Bayt al-Hikma" - "Donishmandlar uyi"da G'arb va Sharq madaniy va ilmiy merosiga oid kitob va qo'lyozmalar arab tiliga tarjima qilinib, o'sha davrning mashhur olimlari tomonidan o'rganilgan. "Hikmatlar uyi"ga boshchilik qilgan Xorazmiy Ahmad al-Farg'oni, Abbas Javhariy, Ahmad bin Abdulla Marvaziy va boshqa o'sha davrning yetuk allomalari fikrlarini bir ilmiy o'zanga solib, yunon an'anaviy geografiyasidan muayyan darajada farq qiladigan Yer haqidagi ilmni shakllantirdi. Bu farq, xususan, Yerning odamlarga ma'lum bo'lgan qismini bo'laklarga bo'lishda namoyon bo'ladi. Qadimgi yunon geografiyasidagi Yerni 13 ta iqlim mintaqasiga ajratib ta'riflash odatidan farqli ravishda, Xorazmiy Yerning odamlar yashaydigan choragini "Rub'i maskun" deb atab, uni yetti iqlimga bo'lgan. Darvoqe, yunon geografiyasida klimat - ya'ni iqlim yerning yoritilishi va isitilishi mintaqalari Quyoshning kunduz kunlari nur sohib turishi asosida ajratilib, ular orasidagi polosalar "Oykumenalar", deb atalgan bo'lsa, Xorazmiy klimatni iqlim deb atab, bu so'z va "oykumena" so'zi mohiyatiga joyning umumiy tabiiy sharoiti bilan birga xalqlar, davlatlarni ham kiritgan. Rub'i maskunning bir bo'lagi "Ma'mura" obod o'zlashtirilgan joylar bir jihatdan yaxlit quruqliklar, kengroq ma'noda materiklar hisoblanadi. Bunday sharqona geografik tushunchalarning

"geografiklik" darajasi togʻ, tekislik, mamlakat, dengiz, orol va boshqa obyektlarning joylashgan oʻrnini alohida taʼkidlashda oʻz ifodasini topadi. Butun oʻrta asr sharqida, xususan, Oʻrta Osiyo xalqlarida, baʼzan hozir ham Xorazmiy qoʻllagan terminlar umummilliy geografik tushunchalar bilan bir qatorda geografik obʼyektlarning xususiyatlarini ifodalashda tabiiy fanlarda ham, ijtimoiy iqtisodiy fanlarda ham keng qoʻllanilmoqda. "Iqlim", "yetti iqlim", "maʼmura", "rubʼi maskun" va boshqa iboralarning badiiy va maxsus adabiyotlarda qoʻllanilayotganligi bu fikrni tasdiqlaydi. Xorazmiyni sharq va arab geografiyasining asoschisi ekanligini olim boshchiligida tuzilgan, fan tarixida "Maʼmun dunyo xaritalari" nomi bilan maʼlum boʻlgan xaritalar yitindisining bizning davrimizgacha saqlanib qolgan nusxalarining tuzilish prinsiplari ham isbotlaydi. "Kitobi surat al-Arz"ning birgina qoʻlyozma nusxasi, xaritalardan toʻrttasi bizgacha yetib kelganki, ularda xaritalar tuzish tamoyiliga qatʼiy amal qilingan. Jami 537 joyning nomi gʻarbdan sharqqa qarab ketma-ket yozilgan, ularning turli (meridiani), arz(i) paralelli darajalar hisobida berilgan. Xaritalar yoʻnalishi xuddi hozirgidek yoʻnalishlarda xaritaning yuqori tomoni shimol, past tomoni janub tarzida chizilgan, yaʼni kompas yoʻnalishiga mos keladi.

Ilmiy geografik merosimiz tadqiqotchisi va jonkuyar targʻibotchisi professor H.Hasanovning fikriga koʻra, Xorazmiy sharq geografiyasining asoschisi boʻlish bilan bir qatorda, islom olamida geografik kartografiyaning ham boshlovchisidir. Milliy geografiyaning tamal toshi oʻrta yerning ilmu fan markazlarida qoʻyilgan. Garchi milliy geografiya ildizlarini tashkil etgan asarlar arab, baʼzi hollarda fors tilida yozilgan boʻlsada, ularning ijodkorlari turli tarixiy davrlarda Movarounnahr, Sugʻdiyona, Xorazm, Toxariston deb yuritilgan bugungi Oʻzbekistonning tuprogʻida tugʻilib voyaga yetganlar, Oʻzi tugʻilgan tuproqqa, ota-bobolarining yurtiga, qolaversa, oʻzlari mansub boʻlgan xalqning koʻpchiligi yashayotgan yurtga iliq bir mehrni qalb toʻrida saqlagan ijodkorlar oʻzlariga "Xorazmiy", "Buxoriy", "Samarqandiy", "Fargʻoniy", "Toshkandiy", "Nasafiy", "Keshiy", "Termiziy" taxallusini olib, iftixor bilan ijod qilganlar. Asarlarining arab, fors tilida

bitilganligiga kelsak, o'sha davr ilm-ma'rifat tilida ijod qilganlar. Allomalarning ko'pchiligi buni o'z asarlarida alohida ta'kidlab o'tganlar.

X asrda ilm-fanning markazlaridan biri Buxoro shahri bo'lgan, o'sha davrda O'rta Osiyo va Xurosonda arab xalifaligidan mustaqil somoniylar davlati tarkib topadi, uning poytaxti Buxoro bo'lgan. Xuddi shu poytaxt shaharda milliy geografiyaning barcha arab geograflari e'tirof etgan yirik namoyondasi Abu Abdulloh Muhammad Jayhoniylar ijod qilgan. Milliy geografiya shakllanishida alohida o'rin tutgan bu ulug' siymoning xizmatlari hozirgacha munosib bahosini olgan emas. Ahmad ibn Ismoilning vafotidan so'ng shahzoda Nasr ibn Ahmad taxtga o'tiradi, ammo yosh bo'lgani uchun davlat ishini boshqarish bosh vazir Jayhoniylar zimmasiga tushadi. Olim va davlat arbobi bo'lgan Muhammad Jayhoniylar o'zining yuksak lavozimidan ilm-fan manfaati yo'lida foydalangan, ilmga ishtiyoqi baland yoshlarni qo'llab-quvvatlagan, ilm ahllarini moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirgan, sayohatchilarga homiylik qilgan. Masalan, 60 ga yaqin asar yozgan, falsafa, astronomiya, geografiya sohasida mashhur olim bo'lgan Abu Zayd Balxiyni har jihatdan qo'llab-quvvatlab, ijodini rag'batlantirib turgan. Geograf va shoir Abu Dulafni Xitoy, Tibet, Hindistonga sayohatga yo'llagan, sayyoh ibn Fadlonning Bag'dod-Eron-Buxoro-Xorazm-Ural-Volga yo'nalishidagi sayohatini moddiy jihatdan ta'minlashda qatnashgan. Umuman, Buxoroga kelgan sayyohlar, savdogarlar, qalandarlar, elchilar bilan suhbatlar qilib, suhbat natijalaridan geografik ma'lumotnomalar sifatida o'z asarlarida foydalangan. Ilm-fanning obro'sini ko'tarishda, ilmga homiylik qilishda Jayhoniylarning boshqalarga ibrat bo'ladigan davlat arbobi bo'lganligini tarixiy manbalar ta'kidlaydi. Arab geografi Muqaddasiylarning yozishicha, Jayhoniylar dunyo geografiyasiga oid yetti jildlik kitob yozgan. Bu kitobning bir jildi "Kitob almasolik va almamolik" - "Masofalar va mamlakatlar kitobi"dan Beruniylar o'zining "Osori Boqiya" asarini yozishda foydalangan. Buni Beruniylarning o'zi alohida ta'kidlab o'tgan. Jayhoniylar geografik asarlari Beruniylarning "Osori Boqiya" dan boshqa "Minerologiya", "Geodeziya", "Saydana" asarlarida bir necha marta tilga olingan. Jayhoniylar ijodidan bu asarlarni yozishda foydalangan, "Masofalar va mamlakatlar kitobi"dan parchalar keltirilgan.

Muallifi hanuzgacha aniqlanmagan, Amudaryo o'rta oqimi chap sohilidagi Juzjon shahri hokimi Abul Xoris Muhammad ibn Ahmadga bag'ishlangan, 983 yilda fors-tojik tilida yozilgan "Hudud-al-olam" nomli asarda ham Jayhoniylar asaridan foydalanilganligi qayta-qayta ta'kidlab o'tilganligini ko'ramiz. Jayhoniylar o'z asarlarini arab tilida bitgan, o'zidan keyin o'tgan olimlarga uning ijodi katta ta'sir ko'rsatgan. Garchi Jayhoniylar asarining asl nusxasi topilmagan bo'lsada, mashhur geograflar Muqaddasiy, Ibn Rusta va boshqalarning ma'lumotida Jayhoniylar dunyoni keng qamrovda tasavvur etgan tadqiqotchi sifatida ta'riflab o'tiladi. Darhaqiqat, Beruniydek qomusiy olim tan bergan, Muqaddasiy hurmat bilan tilga olgan Muhammad Jayhoniylarning ilmiy ijodi keyingi ma'lum va mashhur ijodkorlar Gardeziy, Avfiy, Xavraqiy, Idrisiy va boshqa tarixiy siymolarning olim sifatida shakllanishida muhim manba bo'lib xizmat qilgan, ularning asarlari yozilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Shu boisdan, Jayhoniylarning ilmiy merosi milliy geografiya fani tarixida o'ziga xos bir sahifa ekanligini alohida ta'kidlab o'tishni istardik.

Yerning shakli, geografik rayonlashtirish, geografik komponentlarni va ayrim olingan mamlakatlar, shaxarlarni ta'riflash masalalari geografiya fanida asosiy yo'nalishlar qatoriga kiradi. Aynan shu masalalar "Hudud al-olam" asarida ilmiy-ma'rifiy yo'nalishda izohlab berilgan. Garchi bu asar fors tilida, Xurosonning Balxga yaqin (Shimoliy Afg'oniston) Juzjon shahrida yozilgan bo'lsada, tarixi va taqdiri tutash o'zbek xalqining qadriyati sifatida qaralishi mumkin. Asarda Yerning yumaloqligi, ekvatorning aylana ekanligi, Yerning ikki shimoliy va janubiy qutblari borligi, okeanlar va quruqliklar haqida ma'lumot beriladi. "Hudud al-olam"da Yerning obod qismini 51 ta viloyatga bo'lib, ularning 45 tasi ekvatorдан shimolda, bittasi ekvator ustida, 5 tasini ekvatorдан janubda deb yozib, geografik rayonlashtirish g'oyasini amalda qo'llanilgan. Darhaqiqat, geografiya fanida Yerning quruqliklari bilan okeanlarini bir chekkasidan boshlab o'rganib bo'lmaydi, suv va quruqliklarni o'xshash va farq qiladigan belgilari bo'yicha bo'laklarga bo'lib, ya'ni rayonlashtirib o'rganiladi. Ushbu asarda Yerning odamlar yashaydigan qismini 51 ta viloyatga bo'lishi bu rayonlashtirishdir.

Shunday ekan "Hudud al-olam" asarini O`rta Osiyo xalqlarining umumiy ilmiy geografik merosi desak, to`g`riroq bo`ladi.

O`rta Osiyo va Xuroson geografiya fani tarixini aslida "Beruniyning geografik maktabi" deb atash to`g`riroq bo`lur edi. Chunki Beruniy O`rta Osiyo va Xurosonning faxri bo`lish bilan birga, jahonning eng ulug` olimlaridan biridir", - deb yozgan milliy geografik meros tadqiqotchisi professor Xamidulloh Hasanov chindan ham, yuqorida yozganimizdek, Beruniyning 113 ta yirik asaridan sakkiztasi bevosita geografiya fanining u yoki bu sohalari talqiniga bag`ishlangan. Yuqorida Beruniyning geografiya sohasidagi ishlariga ancha kengroq to`xtalgan edik. Bu yerda ulug` olimning milliy geografiya asoschilaridan biri ekanligini birikki dalillar keltirish orqali ta`kidlab o`tamiz. Beruniy "Saydana" kitobida yozadi: "Dunyoning hamma mamlakatlarida fanlar arab tiliga tarjima qilingan... Men (ham) arab va fors tillarida yozdim. Lekin ularning har ikkovi ham mening ona tilim emas". Darhaqiqat, olimning ona tili turkiy til bo`lgan. Uning asarlari arab, qisman fors tilida yozilganligiga sabab shuki, arab tili o`sha zamonda keng yoyilgan islom dinining tili, davlat tili, xalqaro til qatorida yuritilgan. Olim o`z dahosini barcha xalqlar bilishini maqsad qilib qo`yganligidan, aytish mumkinki, o`zining umumbashariy siymo bo`lib tarixda qolishini ichki bir tuyg`u bilan ko`ra bilganligidan asarlarini arab tilida bitgan bo`lsa, ajab emas.

Beruniyning Yerning geologik tarixi, Yer yuzasining qiyofasi, geografik ob`yektlarning joylashuvi, metrologiya va iqlimshunoslik haqidagi tushuntirishlari, "yetti iqlim" va "ma`mura" lar haqidagi ilmiy talqini, dunyo xaritasini kartografik qonunlar asosida tuzganligi, globus yasaganligi, g`arbda quruqlik – qit`a borligini bashorat qilganligi, O`rta Osiyo, Xuroson va ularga tutash hududlar geografiyasini aniq tasvirlaganligi va shu singari nazariy, daliliy, kartografik g`oya va tushunchalar olimni umuminsoniy geografiya fanining peshqadam arboblari qatoriga ko`taradi. Shunday ekan, Beruniy umuminsoniy geografiya ilmining ham, hududiy milliy geografiya fanining qam asoschisi hisoblanadi. Demak, o`zbek milliy geografiyasining ildizi Beruniydek daholarning ijodi bilan mustahkamdir.

Temuriylar davrida barcha fanlar qatori geografiya ham yuksalish davrini boshidan kechirgan. Hofizi Abruning "Zubdat at-tovarix" va Abdurazzoq Samarqandiyning "Ikki saodatli yulduzning balqishi va ikki dengizning qo'shilishi" kabi tarixiy asarlari milliy hududiy geografiya tarixida o'ziga xos taraqqiyot sahifalardir-ki, bu haqda kitobning boshida ancha batafsil ta'rif berilgan.

O'zbek milliy geografiyasida "Boburnoma" alohida saqifa bo'lish bilan tengsiz aqamiyatlidir, chunki "Boburnoma" hozirgi o'zbek tiliga eng yaqin eski o'zbek (turkiy) tilida, bu tilning boy va rang-barangligini ko'z-ko'z qilib, olam aro tanitgan eng katta geografik asardir. "Boburnoma" ona tilimizning boyligini, jozibadorligini, geografik voqelik va tabiatning qirralarini ifodalash uchun xilma-xil muqobil so'zlar borligini ko'rsatadigan shoh asardir. Asarning "geografiklik" darajasi geografiyaning tushuncha, qonun va qoidalarini ifodalaydigan so'zlarning ishlatilganligini quyidagi parchadan bilsa bo'ladi. Masalan: "Kamrud daryosiga kirib, yuqori boqa yuruduk, tangi va uchma yo'llarda, tund va tez ko'tallarda qalin ot va teva qoldi... ko'p tashvish va suhbat bilan, yuz ranj va mashaqqat bila muxliq baland va tang ko'tallardan oshib, Fan navohisiga kelduk". Tor dara vodiysi - tang, osma yo'lni bosib o'tib, uchma, qorong'u va sovuq hamda tik yonbag'irli dovon oshib Fon tog'lari hududiga kelganligini lo'nda va serma'no so'zlar bilan ifodalamoqda. Dovon termini ko'tal, ort kabi O'rta Osiyo aholisining tarixiy jonli tilidan olib tasvirlanmoqda. Bu parchada Zarafshon daryosi tog'li hududlari yuqori oqimida chuqur va tor daralar, yalang'och qoyalar relyefi ta'riflanmoqda. Darhaqiqat, hozir ham yurish qiyin bo'lgan, ammo juda jozibador manzarali Fan tog'larining tabiiy geografik sharoiti g'oyat ixcham, aynan shu joy relyefiga xos xususiyat bo'rttirib bayon etilayotganligining guvohi bo'lamiz.

Xulosa va takliflar. Qadimgi geograf va sayyohlarning merosini o'rganish va bu borada xulosalar chiqarish maktab geografiya ta'limi mazmunini belgilashda katta ahamiyatga ega. O'lkamizda bobokalonlarimizning geografik tadqiqotlari geografiya ta'limi metodikasini shakllanish va rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Geografik bilimlar har tomonlama kengayib va taraqqiy etib tasvirlovchi fandan hozirgi kundagi mukammal fundamental fan darajasiga yetdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulkarim as-Sam'oni. Nasabnoma (al-Ansob). VIII-XII asrlarda yashagan o'zbekistonlik olimlar haqida ma'lumot. (tarjimon va nashrga tayyorlovchi: hoji Abdulg'affor Buxoriy, Komiljon Rahimov). – T.: 2017. – 273 b.
2. Bo'riyev A. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi. Ilmiy ma'ruza shaklidagi tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – T.: 2019. – 113 b.
3. Sagdullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. – T.: O'qituvchi, 1996. – 112 b.
4. Hasanov H.H. Sayyoh olimlar. – T.: O'zbekiston, 1981. – 264 b.
5. Эшбоев Б.Т. Топонимы Кашкадарьинской области. - Монография. Узбекистан, Карши -2021.
6. Tojievich E. B., Geldiyarovich N. M. Explanation Of Oronyms And Orographic Terms Of Kashkadarya Region //Journal of Contemporary Issues in Business and Government. – T. 2021.
7. Eshboev B., Abduraimov B. Natural geographical problems of using the mountain and near-mountain areas of Kashkadarya region //Экономика и социум. – 2024. – №. 5-1 (120). – С. 275-278.
8. Эшбоев Б.Т. Гидронимлар ва географик терминларнинг жой номларида акс этиши //Общества Узбекистана. – С. 117.
9. Eshboev B.T. The role of geographic terms definition high relief forms in the formation of oronyms. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. France, Paris. Vol. 2. No. 4. 2023.
10. Bexzod E. Shoxboz Y. O'zbekiston oronimlarmmg shakllanish xususiyatlari va lisoniy tahlili //Innovations in Technology and Science Education. – 2023. – T. 2. – №. 8. – С. 697-701.
11. Tojiyevich E.B., Erkinovna K.M. Plase names of the Kashkadarya region associated with climatic and meteorological features //Zbiór artykułów naukowych recenzowanych. – С. 51.
12. Suyunov A., Suyunov S., Khushmurodov F., Suyunov S., Omonov, I., Eshboev B. Ecological consequences of the desertification process in the agrolandscapes of the Kashkadarya oasis. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 160, p. 02006). EDP Sciences. 2025.